

Tarvuzning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Jumanazarova Nigora Ruzimovna

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

Raximbayeva Indira Azamat qizi

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

Kurbanbayeva Xurshidaxon Shuxratovna

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Aholining ovqatlanish ratsionida sabzavot va poliz mahsulotlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va shu sababli respublikamizda ushbu sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tarvuz qimmatli ekin hisoblanadi. U nafaqat mazasi, balki salomatlik uchun koni foyda ekanligi bilan alohida e'tiborga ega. U organizm uchun muhim sanalgan mikroelementlarga boy bo'lib, tarkibida ko'p miqdorda kaliy, temir va magniy saqlaydi. Tarvuz tarkibidagi pektin organizmdagi suv tuz almashinuvini saqlaydi.

Kalit so'zlar. Tarvuz, makroelementlar, mikroelementlar, shifobaxshlik.

Abstract. Vegetables and fruit products are becoming more and more important in the diet of the population, and for this reason, great attention is being paid to the development of this sector in our republic. Watermelon is a valuable crop. It has special attention not only for its taste, but also for its health benefits. It is rich in trace elements, which are important for the body, and contains a large amount of potassium, iron and magnesium. Pectin contained in watermelon preserves water and salt metabolism in the body.

Key words. Watermelon, macronutrients, micronutrients, healing

Аннотация. Овощная и фруктовая продукция приобретает все большее значение в питании населения, поэтому развитию этой отрасли в нашей республике уделяется большое внимание. Арбуз – ценная культура. Особое внимание уделяется не только вкусу, но и пользе для здоровья. Он богат важными для организма микроэлементами, содержит большое

количество калия, железа и магния. Пектин, содержащийся в арбузе, сохраняет водно-солевой обмен в организме.

Ключевые слова. Арбуз, макроэлементы, микроэлементы, целебность

Tadqiqot ob'ekti. Tarvuz (Citrullus lanatus) - Qovoqdoshlar (Cucurbitaceae) oilasiga mansub bo'lgan gulli o'simlik turi hisoblanadi. Vatani — Afrika (Misr). O'simlik palagi 4-5 m gacha boradi. Ildizi chuqur joylashgan o'q ildiz bo'lib, barg qo'ltiqlaridan o'sib chiqqan jingalaklari yordamida ilashib, chirmashib o'sadi. Bargbandi uzun, barglari bir necha bo'lakchalardan iborat. Bu butun dunyo bo'ylab 1000 dan ortiq navlarga ega bo'lgan hammabop poliz mahsuloti hisoblanadi. Tarvuz yer yuzida qadimiy va eng ko'p tarqalgan ekin hisoblanadi. Arxeologlarning ma'lumotlariga ko'ra tarvuz Osiyoda 8000 yil oldin o'troq yashaydigan aholining muhim oziq-ovqat mahsuloti hisoblangan.

Ahamiyati. Tarvuz tarkibi 90 foiz suv va shakardan tarkib topgan. Unda ko'p miqdorda folat kislotasi mavjud bo'lib, qon hosil bo'lishda, organizmda kislota-asos balansini muvozanatlashtirib turishda qatnashadi. Tarvuz sharbati xolesterinni eritib, organizmdan chiqarib yuboradi. Shu boisdan ham tarvuzning jigar kasalliklarida, gipertoniya va ateroskleroz kasalligida foydasi katta. Tarvuz sharbati buyraklarni yuvadi, mayda toshlarni eritadi va tuzlarning organizmdan chiqishiga yordam beradi. Bo'g'im og'rig'i, artrit va artrozlarda shifo bo'ladi. Piyelonefrit kasalligida tarvuz sharbati juda yaxshi naf beradi. Biroq buyrak yetishmovchiligi bor bo'lgan bemorlarga tarvuz sharbati tavsiya etilmaydi. Tarvuz juda mazali bo'lishi bilan birga ozuqaviy qiymati yuqori bo'lgan mevalardan biridir. Tarkibida suv miqdori ko'p bo'lganligi sababli uning energiya miqdori past bo'ladi. [1].

Oziq ovqatdagi ahamiyati. Tarvuz yangiligicha va qayta ishlangan holda iste'mol qilinadi. Undan tarvuz asali (nardek), shinni, tarvuz sukatlari tayyorlanadi va ular tuzlab (tarvuz) va qoqi qilib (qovun) iste'mol qilinadi. Qovun va tarvuz urug'lari mag'zida 31-56 % gacha moylar bo'ladi. 1 gektar qovun va tarvuz ekin maydonlaridan 60-100 kg moy olinsa, qovoq ekinlari 1 gektar maydonidan 360-

400 kg, ba'zi bir navlaridan esa-600-700 kg moy olish mumkin. Poliz ekinlari yem-xashak sifatida chorvachilikda ko'plab ishlatiladi. Shu bilan birga poliz ekinlari g'alla, paxta, sabzavot va xashaki ekinlar uchun yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi. Poliz ekinlarining ba'zi turlari va navlari janubiy mamlakatlarda manzarali o'simlik sifatida ham ekiladi. 100 gramm tarvuz tanani taxminan 30 kkl energiya bilan ta'minlaydi. 200 gramm va taxminan bir tilim, tarvuzning miqdori 60 kkl ga to'g'ri keladi. 100 gramm tarvuz tarkibida 8 gramm uglevod, 0,6 gramm oqsil, 0,2 gramm yog' mavjud. Vitamin va mineral tarkibi ham juda yuqori va 100 gramm tarvuz sutkalik vitamin S ehtiyojining 14 foizini, A vitaminining 12 foizini, kaliy mineralining 3 foizini, magniyning 2 foizini va B1, B5, B6 vitaminlariga bo'lgan talabning 2% qondiradi. U karotinoidlarga juda boy [2].

Tarvuzning ikki xil xo'raki va xashaki turi yer sharida keng tarqalgan. Har ikkala turining botanik belgilarida o'ziga xos o'xshashlik va farqlar mavjud. Xo'raki tarvuzning ildizi o'qildiz bo'lib, tuproqqa eng chuqur kirib boradi (3-3,5 m gacha), lalmi tarvuzlar ildizi yanada chuqurroq kirishi mumkin. Yon tomonga ham keng tarqaladi. Poyalari yotib o'sadi, uzunligi 3-5 m ga boradi, 3-5 ta yon shoxlari bor, tukli barglari bo'laklarga bo'lingan, tukli oqish yashil tusdagi gullari 5 talik tipda, ikki uyli ya'ni onalik va otaliklari alohida joylashgan. Onalik gullarida kichkina tarvuz tugunchasi bor, otalik gullari och sarg'ish tusda, qisqa bandli bo'lib, tez to'kilib ketadi. Onalik gullari yirikroq. Chetdan xasharotlar va shamol yordamida changlanadi. Mevasi - soxta meva, meva bandi uzun, shakli ovalsimon, dumaloq, cho'zinchoq, meva qobiqlari qattiq bo'lib, ba'zan qalin yoki yupqa holatda uchraydi. Rangi to'q yashil, qora, och yashil, gulli chiziqlari bo'ladi. Eti pushti, och sariq, qizil, oq tusda. Tarkibidagi qand miqdori navlari hamda tuproq, iqlim sharoitiga qarab o'zgaradi, qand miqdori 6-16% ga yetadi. Vazni 2-25 kg gacha keladi. Urug'lari yassi, tuxumsimon bo'lib, qovun urug'idan ba'zan kichkina, ba'zan yirik bo'ladi. 0,6-2,0 sm uzunlikdagi urug'ining cheti ba'zan qora rangda, oq sariq, qo'ng'ir, sariq, qoramtir tusda bo'ladi. 1000 dona urug'ining vazni 50-180 g. Tarvuzning barglari ham yirik, bo'laklari qisqa, gullari och sarg'ish tusda bo'lib, shakli yirikroq, gullari ikki uyli. Otalik gullari uzun bandda, onalik

gullari qisqa bandida joylashgan. Mevalari cho'zinchoq yoki dumaloq, och yashil va yashil rangda[3].

Mamlakatimizda rayonlashtirilgan tarvuz navlarini o'suv davri uzunligiga ko'ra 3 guruhga kiritish mumkin: ertapishar navlar - O'rinboy, Olmos, Mahalliy Mozaichniy, O'zbek - 452; O'rtapishar navlar - Korol Kubi - 92, Mramorniy, Dilnoz, Neobichniy, Sputnik; kechpishar navlar - Qo'zivoi 30, Hayit - qora, Guliston. Ertapishar navlari asosan 80- 90, o'rtapisharlari 90-100 va kechpisharlari esa 110-120 kunda pishadi. Tarvuz yangiligida iste'mol qilinadi, sanoatda qayta ishlash uchun xom ashyo, xashaki tarvuz esa chorvachilikda shirali ozuqa sifatida foydalaniladi. Mamlakatimizda tarvuzning 20 dan ortiq navlari ekib kelinadi. Biroq, rayonlashtirilgan tarvuz navlari atigi 12 ta. Tarvuz navlari palaklarining uzunligi va barg yaprog'ining tuzilishi, mevasining katta-kichikligi, shakli, yuzasi, rangi hamda naqshining tusi, xili, po'stining qalinyupqaligi, etining rangi, yumshoq-qattiqligi, shiradorligi, urug'larining kattakichikligi, rangi, yuzasining qay tariqa tuzilgani va undagi naqshlari jihatidan bir biridan farq qiladi[4].

Kuzibay 30-Mevalari noto'g'ri sharsimon, silliq, og'irligi 3,7-4,4 kg ga teng. Naqshlari to'q yashil, qora-yashil chiziqli. Po'stlog'i qalin bo'lib. yorqin pushti, donador. Eriydigan qattiq moddalar miqdori 7,2%, qandlari -6,8%ni tashkil etadi. Ta'm bahosi 3,5-4,7 ball. Urug'lari katta, oq kulrang va jigarrang. O'sish davri 120-130 kun. Hosildorlik 8-9 t/ga, sug'oriladigan yerlarda 30-32 t/ga teng. Uzoq muddatli saqlashga yaroqli va kasalliklarga chidamli.



1-rasm

Guliston-Mevalari sharsimon, silliq tuzulishli. Rangi och yashil, to'q yashil chiziqlar. Po'stlog'i qalin. Mevasining o'rtacha og'irligi 3,0-4,3 kg ni tashkil qiladi. ozgina ezilgan, suvli, shirin, eriydigan qurug` moddalarning tarkibi 8,7%, shakar - 7,6%, ta'm bahosi 4,5 ball. Urug'lar katta, keng oval, oq, silliq. 110- 120 kun. Hosildorligi 31-40 t/ga. Tashish va saqlash sifati yuqori. Kasallikka o'rtacha chidamli. Uzoq muddatli saqlash uchun mo'ljallangan.



2-rasm

Dilnoz - Mevalari sharsimon, silliq, og'irligi 3,5-5 kg. Rangi to'q yashil, deyarli qora rangga bo'yalgan, naqshi quyuq, o'rtacha qalin po'stlog'ining mayda-mayda chiziqlari. Go'shti yorqin qizil, yumshoq, suvli, shirin. Degustatir bahosi 4,8 ball. Eriydigan qattiq moddalar miqdori 7,8%, shakar 6,7%. Urug'lari kichik, qora [5] .



3-rasm

. Tarvuz yaxshi drenajlangan va ozgina kislotali qumli tuproqlarda yaxshi o'sadi. Juda og'ir tuproqlarga ekilganida, o'simliklar sekin rivojlanadi va meva hajmi va sifati odatda past bo'ladi. Tarvuz tuproq pH ko'rsatkichi 5,5 ga teng bo'lganda nisbatan ancha chidamli lekin pH miqdori 6,0 dan 6,8 gacha bo'lgan tuproqda yaxshi o'sadi. Ekishdan oldin tuproqni tayyorlash va o'g'itlarni qo'llash urug'larning namligi va mustahkamligini yaxshilaydi. Shudgorlash va disklashdan tashqari, qator ostidagi chisel yoki tuproqqa ishlov berish moslamasidan foydalanish siqilgan qatlamli tuproqlarda o'simlikni chuqurroq ildiz otishiga yordam beradi.

Poliz ekinlariga mineral o'g'itlarni solish miqdori.

(kg/gektariga sof modda hisobida)

1-jadval

Bo'z tuproqli yerlar			O'tloqi va o'tloqi botqoq tuproqlar		
N	P ₂ O ₅	K ₂ O	N	P ₂ O ₅	K ₂ O
100-150	100-150	50	80-100	100-120	50-60

[6].

Tarvuzning teriga ham foydasi katta. Quruq yoki yangi uzilgan tarvuz po'chog'idan damlangan choy yoshlik go'zalligini saqlab qolishga yordam beradi.

Tarvuz yuz terisini yoshartirib, rangini tozalaydi, shu bilan birga, teriga elastiklik baxsh etadi. Kosmetologiyada tarvuz po'chog'idan niqoblar tayyorlanadi. Buning uchun tarvuz sharbatida namlangan doka yuz va bo'yinda 20 daqiqa davomida ushlab turiladi. So'ngra yumshoq sochiq bilan artib olinib, krem surtiladi. Agarda yuzingizda sepkil bo'lsa, shu sohaga tarvuz urug'idan tayyorlangan emulsiya 20 daqiqa davomida qo'yiladi, so'ng yuvib tashlanadi.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash. O'zbekiston sharoitida tarvuz ekini ko'proq fuzarioz -so'lish, un-shudring kasalliklariga uchraydilar va zararkunanda hasharotlardan-poliz biti, o'rgimchakkana, kuzgi va boshqa

tunlamlar bilan zararlanadilar. Fuzarioz so'lish kasalligining oldini olish uchun bir qator tadbirlar ishlab chiqilgan: shu kasallikka chidamli navlarni ekish; urug'lik uchun mevasi zararlanmagan, sog'lom o'simliklarning ikkinchi hosil terimidan ajratish; daladagi o'simliklar qoldiqlarini yig'ishtirib, yo'q qilish; poliz ekinlarini bedadan, piyoz va sabzidan bo'shagan yerlarga ekish. Tarvuzning kimyoviy tarkibi va xossalarini o'rganganimizda uning tarkibida eng ko'p suv, uglevodlar va oz miqdorda vitaminlar, minerallar borligi aniqlandi. Uning tarkibida bunday moddalarning kamligi har qanday inson yeyishi mumkin bo'lgan parhez taom ekanligini ko'rsatadi [7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] V. I. Zuev, O. Qodirxo'jaev, M. M. Adilov, and U. I. Akramov, *Sabzavotchilik va polizchilik*. Toshkent, 2010. Sabzavotchilik va polizchilik.pdf
- [2] D. RAHMANOV "Polizchilik," 2023.
- [3] D. Y. Yormatova, M. Y. Ibrohimov, and D. S. Yormatova, *MEVA-SABZAVOTCHILIK*.
- [4] Z. K. Yuldasheva and A. M. Islamov, *BOTANIKA YEM-XASHAK YETISHTIRISH*.
- [5] M. I. Odinaev, D. V. Xakimov, A. R. Abdirayimov, *EKSPORTBOP QOVUN VA TARVUZ NAVLARINI YETISHTIRISH VA ULARNING AGROBIOLOGIK XUSUSIYATLARI*.
- [6] W. Roberts, J. Damicone, and J. Edelson, "Watermelon Production," pp. 4–7, 1990.
- [7] A. Rasulov, *Sabzavot, poliz va kartoshka mahsulotlarini saqlash*. 1995.